Turizm klasterlari va tibbiy xizmatlarning integratsiyasi bugungi kunda global xizmatlar iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Mazkur yo‘nalish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar, xalqaro tajribalar va O‘zbekiston amaliyoti tahlili quyidagi ilmiy manbalar asosida o‘rganilgan.

Tibbiy turizm fenomeni va uning iqtisodiy integratsiyasi masalalari G‘arb olimlari – R. Fernandez (2024), F. J. DeMicco, A. A. Poorani, M. Z. Bookman, K. R. Bookmanlarning asarlarida chuqur yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida tibbiy turizm global sog‘liqni saqlash tizimining iqtisodiy segmenti sifatida talqin qilinadi. Fernandez (2024) o‘zining “Medical Tourism: Health Care in a Globalized World” nomli asarida tibbiy turizm klasterlarini shakllantirish orqali sog‘liqni saqlash, transport, mehmondo‘stlik, sug‘urta va marketing xizmatlarini yagona ekotizimga birlashtirish samaradorligini asoslab bergan.

DeMicco va Poorani (2022) esa “Medical Travel Brand Management: Success Strategies for Hospitality Bridging Healthcare (H2H)” asarida “Healthcare-to-Hospitality” konsepsiyasini ilgari suradi. Ularning fikricha, tibbiy xizmatlarni turizm infratuzilmasiga bog‘lash nafaqat xizmat sifati, balki bemorlar ishonchi va iqtisodiy barqarorlikni oshiradi.

Sharq mamlakatlarida tibbiy turizm davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Hindiston, Malayziya, Tayland, Turkiya, Janubiy Koreya va BAAda sog‘lomlashtirish turizmi milliy iqtisodiyotning diversifikatsiya omili sifatida rivojlanmoqda.

Hindistonda “Incredible India” (2006-y.) dasturi asosida tibbiy vizalar joriy qilinib, bemorlarga transplantatsiya, kardiolarroqlik va Ayurvedik terapiyalar bo‘yicha integratsiyalashgan xizmatlar ko‘rsatila boshlandi. 2024-yilda Hindiston 730 ming xorijiy tibbiy sayyohni qabul qilib, \$7 mlrd daromadga erishdi (Kirtane & Pandit Reports, 2024).

Malayziya “Malaysia Tourism Transformation Plan 2020” dasturi doirasida “Salomatlik va tibbiy turizm: Yilning eng yaxshi manzili” mukofotiga sazovor bo‘ldi. Bu mamlakatda tibbiy klasterlar IVF (ekstrakorporal urug‘lantirish), plastik jarroqlik va reabilitatsiya xizmatlarini o‘z ichiga olgan holda yuqori sifatda faoliyat yuritmoqda (IMTJ Awards, 2020).

Indoneziya hukumati esa 2025-yilgacha 1 mlrd AQSh dollari miqdorida sarmoya kiritish orqali Jakarta va Bali shaharlarida xalqaro tibbiy markazlar tashkil etishni rejalashtirgan (Orissa International, 2024).

Sharq mamlakatlari tajribasidan kelib chiqib, tibbiy turizm klasterlarining muvaffaqiyat omillari sifatida quyidagilar ko‘rsatib o‘tiladi:

Transport, klinika, mehmonxona, sug‘urta va tarjima xizmatlarining integratsiyasi;

Davlat-xususiy sheriklik (PPP) asosidagi moliyalashtirish;

Sog‘lomlashtirish infratuzilmasi va raqamli marketing tarmoqlarining uyg‘unligi.

Rossiyalik tadqiqotchilar P. I. Ananchenkova, T. N. Timchenko, V. V. Tonkonog (2024), A. N. Dayxes (2020), G. Yu. Shekin (2013) o‘z tadqiqotlarida tibbiy xizmatlar eksportini mintaqaviy iqtisodiyotda yangi innovatsion yo‘nalish sifatida baholaydi. Ananchenkova va hammualliflar tibbiy turizmning ijtimoiy tenglikni ta‘minlash, dori vositalariga kirish imkoniyatini kengaytirish va sog‘liqni saqlash tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirishdagi rolini asoslab bergan. Shekin (2013) esa tibbiy turizmni “sog‘liq sotsiologiyasining yangi paradigmasi” sifatida talqin qilib, klaster modeli orqali hududlararo integratsiyani ta‘minlash mexanizmlarini ishlab chiqqan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” (PF–60, 2022-yil 28-yanvar¹) doirasida tibbiy turizmni milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida rivojlantirish belgilab berilgan. Shu asosda Namangan, Farg‘ona, Navoiy, Toshkent va boshqa viloyatlarda zamonaviy tibbiyot klasterlarini tashkil etish, xalqaro JCI (Joint Commission International) standartlariga muvofiq shifoxonalar tarmog‘ini kengaytirish ishlari olib borilmoqda.

2025-yil 1-aprelgacha “E-mehmon” avtomatlashtirilgan dasturi orqali tibbiy va sog‘lomlashtirish muassasalarini yagona raqamli platformaga ulash belgilangan (PQ-335-son qaror²). Shuningdek, “Avitsenna” brendi ostida O‘zbekistonning tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmi brendini yaratish, “Medical Service Hospitality” dasturini joriy etish hamda sanatoriy va pansionatlar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Milliy amaliyotda tibbiy turizm klasterlari quyidagi yo‘nalishlarda integratsiyalashmoqda: konsalting, diagnostika, davolash, transport, turoperator va tarjimon xizmatlarini yagona tizimda birlashtirish; davlat va xususiy tibbiy muassasalar hamkorligida sog‘lomlashtirish xizmatlarini takomillashtirish; shuningdek, mahalliy resurslarga asoslangan sanatoriy-kurort zonalarini – Zangiota, Chimyon, Zaamin, Shahrisabz va boshqa hududlarda – tashkil etish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tibbiy turizmning nazariy-uslubiy asoslari, narx siyosati va tibbiy turizm klasterlari masalalari R. Fernandez, F. J. DeMicco, A. A. Poorani, M. Z. Bookman, K. R. Bookman kabi g‘arb olimlari hamda P. I. Ananchenkova, T. N. Timchenko, V. V. Tonkonog, A. N. Dayxes, G. Yu. Shekin va boshqa rossiyalik tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan [3][4]. Ularning ilmiy yondashuvlari tibbiy turizmni iqtisodiyotning yuqori qo‘shimcha qiymatga ega sohasi sifatida rivojlantirishda nazariy asos vazifasini o‘tadi.

Mazkur tadqiqotda tibbiy turizmni turizm klasterlari doirasida integratsiya qilish jarayonlarini o‘rganishda tizimli, qiyosiy va tahliliy yondashuvlar qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida Janubiy Koreya, Hindiston, Turkiya va Singapur davlatlarining tibbiy turizm klasterlari faoliyati qiyosiy tahlil qilinib, ularning muvaffaqiyat omillari – sog‘lomlashtirish markazlari, klinikalar, mehmonxonalar, transport va marketing tizimining integratsiyasi – aniqlab chiqildi.

Shu asosda O‘zbekiston sharoitida tibbiy xizmatlar va turistik infratuzilmani birlashtiruvchi innovatsion modelni ishlab chiqish uchun ilmiy-tahliliy asos yaratildi. Tadqiqot metodologiyasi tibbiy turizm klasterlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga, xalqaro tajribani O‘zbekiston amaliyotiga moslashtirishga hamda sog‘liqni saqlash va turizm sohalarida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hindiston, Turkiya va Janubiy Koreya davlatlarida tibbiy turizm yo‘nalishini rivojlantirishga strategik

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 23.09.2024 yildagi PQ-335-son <https://lex.uz/uz/docs/-7111500>

yondashuv asosida qaralmoqda. Ushbu mamlakatlarda tibbiy turistlar uchun qulaylik yaratish, mamlakatga kirishni soddalashtirish hamda xizmatlar sifatini yaxshilash maqsadida turizm sohasining mas'ul tashkilotlari tomonidan muqobil tibbiy turpaketlar ishlab chiqilgan.

Mazkur tibbiy turpaketlar o'z ichiga aviaqatnov, joylashtirish xizmatlari, transport, tibbiy sug'urta, tarjima xizmatlari, shaxsiylashtirilgan muolajalar va nazorat jarayonlarini qamrab oladi. Ayniqsa, Hindistonda tibbiy viza rejimining joriy etilishi xalqaro tibbiy sayohatchilar uchun qulaylik darajasini sezilarli darajada oshirib, mamlakatni mintaqadagi yetakchi tibbiy turizm markazlaridan biri sifatida shakllantirgan (1-jadval).

1 – jadval. 2024-yilda Sharq mamlakatlarida tibbiy turizmning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri[5]


| Ko'rsatkichlar | Hindiston | Tayland | Turkiya | Janubiy Koreya | Singapur |
|------------------------------|-----------------------------------|---------------------------|--|---------------------------------------|--------------------------|
| Yillik xorijiy bemorlar soni | 730 ming | 3 mln+ | 2 mln | 1,17 mln | 646 ming |
| Sektorning yalpi daromadi | 7,69 mlrd AQSh dollari | 2,57 mlrd AQSh dollari | 3 mlrd AQSh dollari | 1,9 mlrd AQSh dollari | 270 mln AQSh dollari |
| Ixtisoslashgan yo'nalishlar | Kardiojarrohlik, transplantatsiya | Estetika, rehabilitatsiya | Organ transplantatsiyasi, kosmetik jarrohlik | Kosmetik jarrohlik, an'anaviy tabobat | Diagnostika, biotibbiyot |

Yaqin vaqt ichida Osiyo davlatlari tibbiyot turizmi sanoatida jadal rivojlanmoqda. Har yili 6 millionga yaqin chet ellik bemorlarni qabul qilayotgan Malayziya bu yo'nalishda yetakchi davlatlardan biridir. Mamlakatda tibbiy turizmning rivojlanishiga Osiyo iqtisodiy inqirozi turki bergan bo'lib, bu jarayon keyinchalik yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga chiqardi. Malayziyaning, ayniqsa, xitoylik sayyohlarni jalb qilish borasidagi sa'y-harakatlari ushbu sohadagi global raqobatning kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Bu esa mamlakatning bemorlarga yuqori sifatli tibbiy xizmatlar bilan birga qulay sayohat va davolanish tajribasini taqdim etayotganidan dalolat beradi. Tibbiy turistlar eng ko'p tashrif buyuradigan markaz Malayziya poytaxti Kuala-Lumpur hisoblanadi. Mazkur hududning chet ellik bemorlar uchun asosiy afzalliklari sifatida ekstrakorporal urug'lantirish (IVF) xizmatlarining yuqori sifati va bu muolajalar uchun nisbatan arzon narxlar ko'rsatiladi. Bundan tashqari, mamlakatdagi tibbiy muassasalar kuyishdan aziyat chekkan bemorlarni samarali davolash orqali xalqaro miqyosda e'tirofqa sazovor bo'lgan. Vision-2020 rejasi doirasida Malayziyada tibbiy turizm, ta'lim turizmi va boshqa ixtisoslashgan turizm turlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Mamlakat 2020-yilda "Xalqaro tibbiy turizm jurnali" (International Medical Travel Journal) tomonidan "Salomatlik va tibbiyot turizmi: Yilning eng yaxshi manzili" mukofotiga sazovor bo'ldi hamda "Salomatlik va tibbiy turizm: Yil klasteri" nominatsiyasida to'rtinchi bor g'olib deb topildi. Ushbu natijalar Malayziyaning tibbiy turizm sohasida klaster yondashuv asosida samarali tizimni yo'lga qo'rganini yaqqol tasdiqlaydi.

Shuningdek, Indoneziyada ham tibbiy turizmni rivojlantirish hukumat tomonidan keng miqyosda qo'llab-quvvatlanmoqda. CIMBASEAN tadqiqot institutining 2018-yilgi hisobotiga ko'ra, Indoneziya mintaqadagi umumiy tibbiy sayyohlik sektoriga eng katta hissa qo'shayotgan davlat hisoblanadi. Shu bilan birga, mamlakatdagi tibbiy xizmatlar sifati va texnologik imkoniyatlar Malayziya, Singapur hamda Tailand kabi qo'shni davlatlardan biroz ortda qolmoqda. Hisobotga ko'ra, indoneziyalik bemorlar har yili sog'liqni saqlash xizmatlariga xorijda, asosan Malayziyada, 11,5 milliard AQSh dollari miqdorida mablag' sarflaydilar. Agar ushbu xarajatlarning hech bo'lmaganda bir qismi mahalliy tibbiy xizmat ko'rsatuvchi provayderlarga yo'naltirilsa, bu iqtisodiyotning rivojlanishiga va yangi ish o'rinlari yaratilishiga xizmat qiladi. Shu maqsadda, Indoneziya hukumati tibbiy turizm sohasini tartibga solish, davlat investitsiyalarini jalb etish hamda tibbiy xizmatlarni xalqaro standartlarga moslashtirishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilagan. 2025-yilda tibbiyot turistik klasterlarini rivojlantirish uchun 1 milliard AQSh dollari miqdorida mablag' ajratish rejalashtirilgan. Hukumat Jakarta, Bali va Medanda xalqaro darajadagi tibbiy markazlar qurish orqali ushbu sohani yanada rivojlantirishni maqsad qilgan.

Rivojlanayotgan xizmatlar eksporti yo'nalishiga aylangan tibbiy turizm Hindistonda iqtisodiy samaradorlik, yuqori malakali tibbiyot xodimlari va an'anaviy davolash usullari bilan ajralib turadigan asosiy sektorlardan biridir. 1,4 milliarddan ortiq aholiga ega Hindiston bugungi kunda dunyoning ilg'or tibbiy turizm markazlaridan biri sifatida tan olingan. Tibbiy turizm mamlakat yalpi ichki mahsulotiga sezilarli hissa qo'shadi va shu bilan

birga turizm, maishiy xizmatlar, ovqatlanish hamda chakana savdo tarmoqlarining rivojlanishiga turtki beradi. Hindiston hukumati 2000-yillardan boshlab tibbiy turizmni milliy strategik yo‘nalish sifatida belgilab, “Incredible India” dasturi doirasida tibbiy xizmatlar va sog‘lomlashtirish turizmini alohida brend sifatida rivojlantirdi. 2006-yilda joriy etilgan “Medical Visa” tizimi xorijiy bemorlar uchun muhim qulayliklar yaratdi va mamlakatning xalqaro tibbiy turizm bozoridagi mavqeini mustahkamladi (1-rasm).



1-rasm. 2020–2024-yillar oralig‘ida Hindistonga tibbiy turizm maqsadida tashrif buyurgan turistlar soni [9] (ming nafarda)

Yaqin yillarda Osiyo davlatlari tibbiy turizm sanoatida jadal taraqqiyot yo‘lidan bormoqda. Har yili qariyb 6 millionga yaqin chet ellik bemor tashrif buyuradigan birinchi davlat sifatida Malayziya ajralib turadi. Mamlakatda tibbiy turizmning rivojlanishiga Osiyo iqtisodiy inqirozi turtki bo‘lgan. Malayziyaning xitoylik sayyohlarni jalb etish borasidagi izchil sa‘y-harakatlari ushbu sohadagi global raqobat kuchayib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mamlakat bemorlarga yuqori sifatli tibbiy xizmatlar va ijobiy davolanish tajribalarini taqdim etib, xalqaro nufuzini mustahkamlamoqda.

Tibbiy turistlarning asosiy manzili mamlakat poytaxti Kuala-Lumpur bo‘lib, ushbu hududning xorijiy bemorlar uchun afzalligi ekstrakorporal urug‘lantirish (IVF) xizmatlarining yuqori sifati va nisbatan arzon narxlarda taklif etilishidir. Mahalliy tibbiyot muassasalari kuyishdan aziyat chekkan bemorlarni samarali davolash orqali ham yuksak obro‘ qozongan. Vision-2020 rejasi doirasida Malayziyada tibbiy turizm, ta‘lim turizmi va turizmning boshqa ixtisoslashgan turlarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Mamlakat 2020-yilda “Xalqaro tibbiy turizm jurnali” (International Medical Travel Journal) tomonidan “Salomatlik va tibbiyot turizmi: Yilning eng yaxshi manzili” mukofoti bilan taqdirlangan. Shuningdek, “Salomatlik va tibbiy turizm: Yil klasteri” nominatsiyasida to‘rtinchi marta g‘olib deb topilgan. Ushbu natijalar Malayziyaning tibbiy turizm sanoatida klaster yondashuvini samarali qo‘llayotganini yaqqol ko‘rsatadi.

Shuningdek, Indoneziyada ham tibbiy turizmni rivojlantirish hukumat tomonidan keng miqyosda qo‘llab-quvvatlanmoqda. CIMB ASEAN tadqiqot institutining 2018-yilgi hisobotiga ko‘ra, Indoneziya mintaqaning umumiy tibbiy turizm sektoriga eng katta hissa qo‘shayotgan davlatlardan biri bo‘lib, bu mamlakat tibbiy xizmatlari sifati va texnologiyasi jihatidan Malayziya, Singapur va Tailanddan biroz ortda qolayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, indoneziyaliklar har yili sog‘liqni saqlash xizmatlari uchun, asosan Malayziyada, 11,5 milliard AQSh dollari miqdorida mablag‘ sarflaydilar. Ushbu xarajatlarning bir qismini mahalliy provayderlarga yo‘naltirish ish o‘rinlari yaratish va ichki iqtisodiyotni rag‘batlantirish imkonini beradi.

Indoneziya hukumati tibbiy turizmni tartibga solish tizimini takomillashtirish maqsadida soha uchun davlat investitsiyalarini jalb etish rejasini ishlab chiqdi. Jumladan, 2025-yilda tibbiy turizm klasterlarini rivojlantirish uchun qariyb 1 milliard AQSh dollari miqdorida moliyaviy resurs ajratilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, xalqaro standartlarga javob beradigan tibbiy markazlarni tashkil etish, shuningdek Jakarta, Bali va Medan shaharlarida tibbiy turizm markazlarini barpo etish ishlari amalga oshirilmoqda.

Rivojlanayotgan xizmatlar eksporti yo‘nalishiga aylangan tibbiy turizm Hindistonda iqtisodiy samaradorligi,

yuqori malakali tibbiyot xodimlari va an’anaviy davolash usullari bilan ajralib turadigan asosiy tarmoqlardan biri hisoblanadi. 1,4 milliarddan ortiq aholiga ega Hindiston tibbiy turizm bozorida yetakchi destinatsiyalardan biri bo‘lib, mamlakat yalpi ichki mahsulotiga sezilarli hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, u turizm, maishiy xizmatlar, ovqatlanish va chakana savdo sohaslarining rivojlanishiga ham turtki bermoqda.

Hindiston hukumati 2000-yillardan boshlab tibbiy turizmni milliy strategik yo‘nalish sifatida belgiladi. “Incredible India” kampaniyasi doirasida tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmi alohida brend sifatida targ‘ib qilinmoqda. 2006-yilda “Medical Visa” joriy etilishi xorijiy bemorlar uchun muhim qulaylik yaratdi. Natijada mamlakat sog‘liqni saqlash infratuzilmasi va xizmatlar sifati bo‘yicha jadal rivojlanish yo‘liga chiqdi.

Hindiston tibbiy turizm klasterlarida zamonaviy tibbiyot markazlari, ilg‘or shifoxonalar va ambulator tarmoqlar faoliyat yuritmoqda. Asosiy sog‘lomlashtirish maskanlariga Gujarotdagi Titxal, Ubxrat, Diu, Daman, Maharashtradagi Madha, Marv, Karnatakadagi Ullal, Udili, Mangamuru va boshqa kurortlar kiradi. Mamlakatda qadimdan tan olingan Ayurveda, Sidda, Unani, Yoga, Naturopatiya va Gomeopatiya yo‘nalishlari o‘ziga xos davolash tizimlari sifatida mashhurdir. Hindiston Ayurvedasi o‘zining yaxlit salomatlik falsafasi bilan dunyoga tanilgan.

Ayrim tibbiyot muassasalari bemorlarning sayohatini to‘liq rejalashtirish – viza arizasidan tortib, bemor oilasi uchun mehmonxonani bron qilishgacha – xizmatlarni taqdim etadi. Hindiston dunyoda yagona davlatdirki, bu yerda buyrak transplantatsiyasi kabi murakkab muolajalarni o‘tkazish bilan bir qatorda bemorlarga Taj Mahalga tashrif buyurish imkoniyati ham yaratiladi.

Operatsiyadan oldin yoki keyin bemorlar uchun Dalay Lamaning Dxaramsaladagi ma‘ruzalarida ishtirok etish, Banxavgar milliy bog‘ida safari, Orissa va Madhya-Pradesh qabilaviy qishloqlarida hunarmandchilik mahsulotlarini xarid qilish kabi yo‘nalishlar bo‘yicha tibbiy-turistik marshrutlar taklif etiladi.

Tibbiy xizmat provayderlari bemorlar ehtiyojiga mos individual paketlar ishlab chiqib, viza yordami, aeroport transferlari, davolanish va reabilitatsiya xizmatlari, shuningdek maxsus ibodat xonalari, individual oshxona va tarjimon xizmatlarini taqdim etadilar. Bu esa mamlakatda tibbiy turistlar oqimining izchil o‘shishiga zamin yaratmoqda.

Hindistonning raqobatbardoshligi shundaki, u tibbiy xizmatlarini bemorlarning daromadi yoki mansabidan qat‘i nazar taqdim etadi. Shifoxonalar va klinikalar onlayn xizmatlar orqali bemorlarga oldindan tashxis qo‘yish va zarur muolajalarni rejalashtirish imkonini beradi. Mamlakat bugungi kunda biotexnologiya tadqiqotlari, xususan ildiz hujayralarini o‘rganish sohasida dunyoning ilg‘or markazlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda.

O‘zbekistonda tibbiy turizm mehmondo‘stlik sanoatining yangi va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Mamlakat o‘zining tabiiy-geografik sharoiti, ekologik muvozanati hamda demografik salohiyati bilan tibbiy turizmni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlarga ega. Shu bois, hukumat sohani rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi hukumatining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi mamlakatda tibbiyot va sog‘liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek, zamonaviy tibbiy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan muhim qadam bo‘ldi. Ushbu strategiya doirasida respublikaning yetti hududida zamonaviy tibbiyot klasterlarini tashkil etish belgilangan bo‘lib, ular Namangan, Farg‘ona, Sirdaryo, Qashqadaryo, Navoiy, Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahrini o‘z ichiga oladi.

Yaratiladigan tibbiyot klasterlari nafaqat mahalliy aholiga yuqori sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish imkonini beradi, balki O‘zbekistonning xalqaro tibbiy turizm bozorida jozibadorligini sezilarli darajada oshiradi. Klasterlar zamonaviy tibbiy uskunalar, yuqori malakali mutaxassislar va ilg‘or davolash texnologiyalarini o‘zida mujassam etgan holda, xalqaro standartlarga mos xizmatlarni taqdim etadi.

Mazkur loyihaning amalga oshirilishi natijasida O‘zbekistonga tashrif buyuruvchi tibbiy sayyohlar sonining barqaror o‘shishi kutilmoqda. Bunga mamlakatdagi yuqori sifatli va nisbatan arzon tibbiy xizmatlar, qulay geografik joylashuv, shuningdek, O‘zbekistonning boy madaniy merosi va tarixiy obidalarining mavjudligi asosiy omil bo‘ladi. Shu bilan birga, tashkil etilayotgan tibbiyot klasterlari ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish, hamda mahalliy tibbiyot xodimlari uchun malaka oshirish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi.

Bu o‘z navbatida O‘zbekistonni nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun Osiyo mintaqasida tibbiy turizm markaziga aylantirish salohiyatini oshiradi. Shu tariqa, mazkur strategiya sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish va tibbiy turizmni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha uzoq muddatli hamda keng qamrovli yondashuvni ifodalaydi. Natijada bu tashabbuslar nafaqat iqtisodiy o‘shishga, balki mamlakatning xalqaro nufuzini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Tibbiy xizmatlar sifatini oshirish orqali turizm sohasi daromadiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan [12].

Misol tariqasida, Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi faoliyatini keltirish mumkin. Markaz o‘z tarkibida 178 o‘rinli stasionar bo‘lim va ilmiy-tashxis poliklinikasini qamrab oladi. Bu yerda homila tushishi, yo‘ldosh yetishmovchiligi, bepushtlik, shuningdek, homila va

yo‘ldosh bilan bog‘liq kasalliklarni davolashda fetal jarrohlik asosidagi kompleks muolajalar amalga oshiriladi. Shuningdek, jinsiy a‘zolarida yirik o‘smalar aniqlanganda, organi saqlab qolishga qaratilgan rekonstruktiv-plastik operatsiyalar zamonaviy texnologiyalar asosida muvaffaqiyatli bajarilmoqda.

O‘zbekistonda tibbiy turizm so‘nggi yillarda mehmondo‘stlik sanoatining yangi va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Mamlakat tabiiy-geografik sharoiti, ekologik muvozanati va demografik salohiyati bilan tibbiy turizmni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlarga ega. Shu sababli, hukumat tomonidan bu sohani rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida yuqori texnologiyalarga asoslangan jarrohlik amaliyotlari va rekonstruktiv-plastik operatsiyalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, jinsiy a‘zolarida yirik o‘smalar aniqlanganda, organi saqlab qolishga qaratilgan muolajalar zamonaviy texnologiyalar asosida bajariladi. Markaz stasionarida yuqori darajadagi qulayliklar yaratilgan: superlyuks xonalar zamonaviy mebellar, muzlatgich, elektr choynak, keng javon-kupe, kreslo va jurnal stoli, iqlimni boshqaruvchi konditsioner, bepul Wi-Fi, alohida dush va hojatxona bilan ta‘minlangan.

Bemorlar va ularning hamrohlari davolanish hamda tashxis jarayonlarini Toshkentdagi tarixiy va madaniy meros obyektlariga sayohat bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatiga egalar. Ular, xususan, Ko‘kaldosh madrasasi, Shayxontohur va Zangiota majmualari, Hazrati Imom ansambli, Jomiy, Tilla Shayx hamda Namozgoh masjidlari kabi maskanlarga tashrif buyurishlari mumkin.

Tibbiy turizm eksporti ko‘rsatkichlarining o‘shish tendensiyalari ijobiy bo‘lishiga qaramay, O‘zbekiston tibbiy turizm bozorida sanoat hajmi va jozibadorligi bo‘yicha hali yetarli darajada rivojlanmagan. Milliy ekspertlar hisob-kitoblariga ko‘ra, tibbiy turizm xizmatlari eksportidan yiliga kamida 300 million AQSh dollari miqdorida daromad olish imkoniyati mavjud. So‘nggi besh yil ichida xususiy klinikalar soni keskin oshgan bo‘lsa-da, ularning faqat ayrim qismi xalqaro sertifikatlarga ega.

Vaziyatni yanada yaxshilash maqsadida hukumat tomonidan tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini rivojlantirishga qaratilgan muhim qarorlar qabul qilindi. Xususan, Janubiy Koreya, Hindiston va Turkiya tajribasi asosida ishlab chiqilgan “Tibbiy xizmatlar mehmondo‘stligi” dasturi amalga oshirilmoqda. Ushbu dastur doirasida shifoxonalar va klinikalarda xorijiy bemorlarga qulay, zamonaviy, insonparvar xizmatlar ko‘rsatish tizimi joriy etilmoqda.

O‘zbekistonda tibbiy turizm salohiyatini oshirishning asosiy strategik yo‘nalishlari sifatida quyidagilar belgilangan:

- sog‘liqni saqlash infratuzilmasini modernizatsiya qilish;
- xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash;
- tibbiy xizmatlarni raqamlashtirish;
- xorijiy tajribaga asoslangan strategik marketing tizimini shakllantirish.

Ushbu yo‘nalishlarda tizimli yondashuv asosida amalga oshirilayotgan islohotlar O‘zbekistonni yaqin yillarda Markaziy Osiyoning tibbiy turizm markaziga aylantirish imkonini beradi.

O‘zbekistonning tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmi sohasi bo‘yicha mavjud salohiyati, rivojlanish istiqbollari hamda xorijiy tajribaning o‘rni va undan foydalanish imkoniyatlari har tomonlama tahlil qilindi. Mamlakatimizda bu yo‘nalishda marketing strategiyalarini takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash va xorijiy investitsiyalarni jalb etishda tizimli yondashuvni joriy etish zarur.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda tibbiy turizmni keng rivojlantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlar mavjud, biroq mavjud imkoniyatlardan to‘liq va oqilona foydalanish lozim. Tibbiyot xodimlari – shifokorlar, hamshiralar hamda boshqa mutaxassislarning bilim va malakasi xalqaro standartlarga mos bo‘lishi qat‘iy nazorat qilinishi, ular uchun muntazam ravishda master-klasslar, malaka oshirish kurslari va amaliy treninglar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, tibbiy turistlar bilan muloqotda xalqaro etik me‘yorlarga rioya qilish madaniyatini mustahkamlash zarur.

Tibbiy xizmatlar sifatini jahon andozalariga mos darajada oshirish va ularni samarali targ‘ib etish orqali O‘zbekistonni mintaqadagi eng jozibador tibbiy turizm markazlaridan biri sifatida tanitish imkoniyati yaratiladi. Xorijiy bemorlarning shaxsiy ma‘lumotlarini ishonchli himoyalash, maxfiylikni kafolatlash hamda “sodiqlik dasturlari” ni joriy etish ularning ishonchini oshirish va doimiy mijozlar bazasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Mamlakatda xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan shifoxonalar sonini ko‘paytirish, mavjud tibbiy muassasalarning raqamli marketing imkoniyatlaridan keng foydalanishi, internet orqali reklama va xalqaro tibbiy sayyohlik platformalari bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur.

Natijada, tizimli yondashuv asosida amalga oshiriladigan ushbu choralar O‘zbekistonning tibbiy turizm sohasidagi salohiyatini oshirish, uning xalqaro raqobatbardoshligini mustahkamlash hamda sog‘lomlashtirish

xizmatlari eksportini ko‘paytirishga zamin yaratadi (2-rasm).

“Tibbiy xizmatlar mehmondo‘stligi” (“Medical service hospitality”) dasturi amalga oshiriladi.

Davlat va xususiy tibbiyot muassasalari hamda sanatoriy va pansionatlar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini monitoring qilish tizimi joriy qilinadi.

Konsalting–diagnostika–davolash–turoperator–transport–tibbiy tarjimon xizmatlarini birgalikda ko‘rsatadigan tibbiy turizm klasterlari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

“Avitsenna” nomi ostida O‘zbekistonning tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmi brendi ishlab chiqiladi.

Toifali (yulduzli) mehmonxonalar tipidagi sanatoriylar faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Tog‘li, shifobaxsh balchiq qatlamlari bor hamda shifobaxsh suvlar qatoriga kiritilgan va sanitariya-sog‘lomlashtirish ahamiyatiga molik suv (termal suv) obyektlari mavjud bo‘lgan hududlarda sanatoriy-kurort zonalarini tashkil qilinadi.

2025-yil 1-aprelgacha internet tarmog‘i orqali yashovchilarni hisobga olishning avtomatlashtirilgan maxsus elektron dasturi (E-mehmon)ga ulangan xususiy tibbiyot va sog‘lomlashtirish muassasalari dastlabki 6 oylik abonent to‘lovi to‘lashdan ozod qilinadi.

2-rasm. O‘zbekistonda tibbiy turizm salohiyani oshirishning ustuvor yo‘nalishlari.

Manba: PQ-335-son qaroriga³ asosan muallif tomonidan ishlanma.

Shu asosda, O‘zbekistonda shifoxona va klinikalar faoliyatini xalqaro JCI (Joint Commission International) standartlariga moslashtirish, shuningdek, tibbiy turizm salohiyatini keng targ‘ib etish maqsadida qo‘shni davlatlarning turoperatorlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari uchun infoturlar va ishbilarmonlik uchrashuvlarini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bundan tashqari, qo‘shni davlatlarda o‘tkaziladigan xalqaro ko‘rgazmalar va forumlarda O‘zbekistonning tibbiy turizm imkoniyatlarini faol targ‘ib qilish zarur.

Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarning yetakchi tibbiyot institutlari, kompaniyalari va klinikalari bilan hamkorlikda integratsiyalashgan tibbiy klasterlarni shakllantirish taklif etiladi. Mazkur klasterlar o‘z tarkibiga tibbiyot institutlari, ilmiy-laboratoriyalar, davolash muassasalari, diagnostika markazlari hamda tibbiy jihozlar ishlab chiqaruvchi korxonalarini qamrab olishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sog‘liqni saqlash xizmatlariga bo‘lgan talabning ortib borishi, tibbiy texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda xalqaro bemorlar uchun qulay muhit yaratishga intilish tibbiy turizmni ko‘plab mamlakatlarda strategik ustuvor yo‘nalishga aylantirgan. Mazkur soha nafaqat aholi salomatligini tiklash va mustahkamlashda, balki

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 23.09.2024 yildagi PQ-335-son <https://lex.uz/uz/docs/-7111500>

iqtisodiy o‘shish, bandlik darajasini oshirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda ham muhim o‘rin tutadi. Shu bois, O‘zbekistonda tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini rivojlantirish, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasini chuqur tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmi sohasining rivojlanishi O‘zbekistonda turizmni diversifikatsiyalash, mavsumiylik muammosini kamaytirish hamda xizmatlar sohasining barqaror o‘shishini ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda sog‘liqni tiklash, stressni bartaraf etish, reabilitatsiya va profilaktika xizmatlariga bo‘lgan talabning ortishi mazkur yo‘nalishni strategik jihatdan muhim tarmoq sifatida shakllantirish zaruratini kuchaytirgan. Tibbiy turizmning rivojlanishida Sharq mamlakatlari, xususan, Hindiston tajribasini o‘rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, xorijiy bemorlarga xizmat ko‘rsatuvchi tibbiyot muassasalari huzurida yulduzli toifaga ega mehmonxonalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish tibbiy turistlarning joylashtirish xarajatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri shifoxona va klinikalarga yo‘naltirish imkonini beradi. Shu bilan birga, mavsumiy, sog‘lomlashtirish va profilaktika maqsadida sayyohlarni sanatoriy va kurort muassasalariga jalb etish bo‘yicha innovatsion reklama kampaniyalarini tashkil etish, mavjud obyektlarning infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda ilg‘or axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. European Travel Commission. World Tourism Organization. Exploring Health Tourism. Executive Summary. – 2018. – P. 2. URL: <https://etc-corporate.org/uploads/reports/2018-ETC-UNWTO-Exploring-Health-Tourism-Executive-Summary.pdf>
2. Top 5 Countries for Medical Tourism. – 2018. URL: www.Clements.com
3. Fernandez R. Medical Tourism: Health Care in a Globalized World. – UK: Synesthesia in Print, 2024. – 460 p.; DeMicco F.J., Poorani A.A. Medical Travel Brand Management: Success Strategies for Hospitality Bridging Healthcare (H2H). – Canada: Apple Academic Press, 2022. – 475 p.; DeMicco F.J. Medical Tourism and Wellness Hospitality Bridging Healthcare (H2H). – Waretown, NJ: Apple Academic Press, 2021. – 480 p.; Bookman M., Bookman K. Medical Tourism in Developing Countries. – New York: Palgrave MacMillan, 2007. – 245 p.
4. Ананченкова П.И., Тимченко Т.Н., Тонконог В.В. Неравенство в здравоохранении и проблема доступности лекарственных средств: роль медицинского туризма: монография. – Москва: Русайнс, 2024. – 113 с.; Дайхес А.Н. Научное обоснование организации экспорта медицинских услуг в регионе Российской Федерации: диссертация кандидата медицинских наук. – Москва: Сеченовский университет, 2020. – 194 с.; Щекин Г.Ю. Концептуализация феномена медицинского туризма в социологии медицины: диссертация доктора социологических наук. – Волгоград: Волгоградский государственный медицинский университет, 2013. – 309 с.; Александрова А.Ю. Международный туризм. – М.: Аспект Пресс, 2012. – 470 с.
5. World Bank Group. Tourism Watch Quarterly Report: January 2025 Edition. URL: <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099657102062540298/pdf/IDU1246ed8201867814184182481f6cb2378ed95.pdf>
6. Government of Malaysia. Malaysia Tourism Transformation Plan 2020. – Ministry of Tourism, Malaysia, 2010.
7. URL: https://www.kln.gov.my/web/srb_belgrade/home/-/blogs/malaysia-won-the-international-medical-travel-journal-awards-2020/maximized
8. URL: <https://www.orissa-international.com/business-news/indonesian-government-exploring-plans-to-develop-medical-tourism/>
9. Kirtane & Pandit Reports. Healthy Horizons: Analysing India’s Medical Tourism Boom. – India, 2024. – P. 20. URL: <https://www.kirtanepandit.com/public/pdf/1728905647.Medical%20Report.pdf>
10. URL: <https://www.justkerala.in/kairali-ayurvedic-healing-village.html>
11. Incredible India. Hindiston Turizm vazirligining rasmiy veb-sayti. URL: <https://www.incredibleindia.org/> (murojaat sanasi: 2024-yil 18-aprel).
12. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son farmoni. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
13. Как будет развиваться медицинский и оздоровительный туризм. URL: https://www.norma.uz/uz/novoe_v_zakonodatelstve/kak_budet_razvivatsya_meditsinskiy_i_ozdorovitelnyy_turizm



**TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

23-24

OCTOBER
2030

23-24
OCTOBER
2025

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

UZBEKISTAN
STRATEGY
23-24 OCTOBER

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:
BANKING AND
FINANCIAL SYSTEM AND
DIRECTIONS FOR DEVELOPING
THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ
«УЗБЕКИСТАН –2030»

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

<https://strategy2025.tsue.uz/>

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS ФОРУМ UZBEKISTAN STRATEGY



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: sq1141983@gmail.com

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz

ISBN 978-9910-8110-8-1



9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030
UZBEKISTAN
STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI
VA XUSUSIY SEKTORNI
RIVOJLANTIRISH
YO'NALISHLARI